O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR AGENTLIGI

**BUYRUG'I**

2023 yil "15" mart №40

**Davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha
Xarid komissiyasini tuzish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) ehtiyojlari uchun zarur tovar (ish, xizmat)larni qonun doirasida xarid qilishni tashkil etishni davom ettirish maqsadida, **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-aprelda qabul qilingan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-sonli Qonuniga muvofiq Agentlik ehtiyojlari uchun zarur tovar (ish, xizmat)lar xaridini tanlov o'tkazish orqali amalga oshirish bo'yicha Xarid komissiyasi (Xarid komissiyasi) tuzilsin va uning tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xarid komissiyasi (G'.Bozorov):

Xarid qilish tartib-taomillarini O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni talablari asosida tashkil qilsin.

3. Xarid komissiyasi mas'ul kotibi Buxgalteriya hisobi va reja-moliya faoliyati bo'limi bosh mutaxassis (R.Axmedov) Xarid komissiyasining takliflarni ko'rib chiqish, baholash va tanlov g'olibini aniqlash bo'yicha yig'ilishini tashkil etish va bayonlarini rasmiylashtirishni o'z vaqtida amalga oshirib borsin.

4. AKT xizmati boshlig'i (M.Mirhosilov) va Buxgalteriya hisobi va reja-moliya faoliyati bo'limi bosh mutaxassis (K.Djalilov) Xarid komissiyasining ishchi organi etib tayinlansin.

5. Xarid komissiyasining ishchi organi tanlov g'olibi bilan imzolangan shartnoma shartlarining bajarilishini nazorat qilish hamda yetkazib berilgan tovar (ish, xizmat)larning sifati va texnik talablarga muvofiqligini tekshirgan holda qabul qilib olish bo'yicha mas'ul hisoblansin.

6. Agentlikning 2022-yil 23-avgustdagi 174-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan, deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

**Direktor** **A.Xodjayev**

**Kiritdi:**
Buxgalteriya hisobi va
reja-moliya faoliyati bo‘limi — Sh.Erkaboyev

**Kelishildi:**
Direktor o‘rinbosari — G‘.Bozorov

Direktor maslahatchi — F.Muxiddinov

Axborot xizmatlari faoliyatini tashkil qilish
va muvofiqlashtirish boshqarmasi — J.Husanov

Mass-media bilan ishlash va
uni rivojlantirish boshqarmasi — G.Xatamova

Komplayens nazorati xizmati — G‘.Boliyev

Axborot xizmati bo‘limi — N.Karimova

Davlat ro‘yxatiga olish bo‘limi — M.Parpiyev

Umumiy bo‘lim — N. Usmanov

AKT xizmati boshlig’i — M.Mirhosilov

Yuridik masalalar va axborot sohasini
huquqiy tartibga solish bo‘limi — Sh.Axtamov

Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023 yil "15" martdagi
40 - son buyrug'iga ilova

**Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ehtiyojlari uchun zarur tovar (ish, xizmat)lar xaridini tanlov o'tkazish orqali amalga oshirish bo'yicha Xarid komissiyasi**
**TARKIBI**

| | | |
|---|---|---|
| Xarid komissiyasi raisi: | Bozorov G'ayrat Nazarovich | Direktor o'rinbosari |
| Xarid komissiyasi raisi o'rinbosari: | Muxiddinov Fatxiddin Fazliddinovich | Direktor maslaxatchi |
| Xarid komissiyasi a'zolari: | Xusanov Jasur Ruhiddinovich | Axborot xizmatlari faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i |
| | Xatamova Gulruxsor Kudratovna | Mass-media bilan ishlash va uni rivojlantirish boshqarmasi |
| | Karimova Nigora Lutfullayevna | Axborot xizmati bo'limi boshlig'i |
| | Rahmonov Alimardon Rasulovich | Nashriyot-matbaa va kutubxona faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i |
| | Parpiyev Ma'mur Maxmudovich | Davlat ro'yxatiga olish bo'limi boshlig'i |
| | Tojeddinov Xudoynazar Abdusharipovich | Maxsus xizmati boshlig'i |
| | Usmanov Nodir Saidmaxmudovich | Umumiy bo'lim boshlig'i |
| Xarid komissiyasi mas'ul kotibi: | Axmedov Rustam Raxmatboy o'g'li | Buxgalteriya hisobi va reja-moliya faoliyati bo'limi |

**Izoh:** Xarid komissiyasi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga mazkur lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxslar kiritiladi.